



**XUSNIDDIN SHARIPOV SHE'RIYATIDA BAXT VA QUVONCH
KONSEPTI: "BAXT ERUR..." SHE'RI TAHLILI**

Meliqo'ziyeva Shaxzodaxon

Qo'qon shahar 1-son texnikumi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada taniqli o'zbek shoiri Xusniddin Sharipovning "Baxt erur..." sarlavhali she'ri lirik va konseptual jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda she'riyatdagi "baxt" va "quvonch" tushunchalarining vatanparvarlik, falsafiy mushohada va insoniy qadriyatlar bilan bog'liqligi yoritilgan. Matndagi badiiy tasvir vositalari, ramzlar va metaforalar orqali muallifning estetik ideali hamda olamni his qilish falsafasi ochib berilgan. She'rning lotin alifbosidagi to'liq transkripsiyasi ham taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: Xusniddin Sharipov, baxt konsepti, quvonch, lirik qahramon, Vatan mehri, falsafiy tahlil, o'zbek she'riyati, badiiy tasvir vositalari.

KIRISH

O'zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri Xusniddin Sharipov o'z ijodida insoniy kechinmalar, falsafiy mushohadalar va eng muhimi, Vatan timsolini yuksak mahorat bilan kuylagan ijodkorlardan hisoblanadi. Shoir she'riyatining bosh g'oyasi inson va uning ma'naviy olami, hayotning mazmuni hamda komillik sari intilishdan iborat. Adabiyotshunoslikda "baxt" va "quvonch" konseptlari subyektiv hamda obyektiv omillarning sintezi sifatida o'rganiladi. Xusniddin Sharipovning "Baxt erur..." she'rida ushbu tushunchalar shaxsiy hissiyotlar chegarasidan chiqib, umuminsoniy va umummilliylik kasb etadi.



1. "BAXT ERUR..." SHE'RINING MATNI (LOTIN ALIFBOSIDA)

Tahlil obyekti hisoblangan she'rning matni imlo va uslubiy jihatdan asliga muvofiq ravishda lotin yozuviga quyidagicha o'girildi:

BAXT ERUR...

Köz ochib, olam chiroyin qalbga chekkan lahzadan
Bir shirin kuy lablarimda: — Jon Vatan, jonim Vatan!
Baxt erur sevmak vatanni, chin muhabbat bölsa bas,
Kimga kirgay jon bilan u, kimga kelgay daf'atan.
Barq urib ötgay zamonlar, asta daryolar ötar,
Ketmagay beiz va lekin senga mehrin bog'lagan.
Közga surgayman otam yurgan u yöllar gardini,
Men uchun jannatga monand validam ösgan chaman.
Gul bölib kaftingda ungay baxtu iqbolim mening,
Dilda orzu, qayga borsang, sen bilan bormoqdaman.
Kulbimizga poydevor sen, boshimizga soyabon,
Bir umr shoirga yor sen, to abad tolibga fan.
Kun kelar, ishq ahli yetgay dard chekib mahbubiga,
Bunda bölmas Yosumanlar, bunda bölmas Ahraman
Kuyla Xusniddin bilan, sozim, Vatanning vasfini,
Jör bölur özbek atalgan eng chiroyli anjuman.

2. QUVONCH VA BAXT KONSEPTINING G'OYAVIY-BADIYY TAHLILI



She'r sarlavhasidanoq ma'lumki, asarning markazida baxt falsafasi turadi. Biroq shoir talqinida baxt va undan tug'iladigan chinakam quvonch moddiy ne'matlar yoki shaxsiy hordiq bilan emas, balki bevosita Vatan tuyg'usi bilan bog'liqdir. Birinchi banddayoq lirik qahramon ko'z ochib dunyoni ko'rgan lahzasidanoq qalbida "Jon Vatan, jonim Vatan!" degan shirin kuy yangrayotganini ta'kidlaydi. Bu yerda quvonch – olam chiroyini anglash va shu zaminga daxldorlik tuyg'usidan iborat.

Ikkinchi bandda muallif baxtning formulasini beradi: "Baxt erur sevmak vatanni, chin muhabbat bo'lsa bas". Shoir fikricha, haqiqiy quvonch va xotirjamlik Vatanga bo'lgan beg'araz sevgidadir. Bu sevgi inson qalbini yorituvchi, unga yashash va ijod qilish uchun kuch beruvchi ma'naviy manba hisoblanadi. Vaqt o'tishi, zamonlar almashishi va daryolardek oqib ketishi muqarrar, ammo Vatanga bog'langan mehr hech qachon beiz ketmaydi.

She'rda quvonch va baxt konsepti ajdodlar xotirasi va oilaviy qadriyatlar orqali ham boyitilgan. Otaning yurgan yo'llari gardini ko'zga surtish, onaning o'sgan qadriyatlarning, milliy mentalitetning she'riyatdagi go'zal in'ikosidir. Lirik qahramonning baxti va iqboli Vatan kaftida gul bo'lib unadi. Bu o'xshatish inson hayoti va taqdiri Vatansiz hech qanday ahamiyatga ega emasligini yorqin ko'rsatib beradi. chamanini jannatga qiyoslash – bu o'zbekona qadriyatlarning, milliy mentalitetning she'riyatdagi go'zal in'ikosidir. Lirik qahramonning baxti va iqboli Vatan kaftida gul bo'lib unadi. Bu o'xshatish inson hayoti va taqdiri Vatansiz hech qanday ahamiyatga ega emasligini yorqin ko'rsatib beradi.

3. RAMZIY TIMSOLLAR VA MIFOLOGIK OBRAZLAR

Xusniddin Sharipov she'rning yakuniy qismida Sharq mumtoz adabiyoti va mifologiyasiga xos bo'lgan timsollarga murojaat qiladi. Xususan, "Yosuman" (makr-hiyla ramzi) va "Ahraman" (yovuzlik, zulmat timsoli) obrazlarining keltirilishi she'rning falsafiy yukini oshirgan. Shoir kelajakka katta umid bilan qaraydi: uning talqinida oliy quvonch shundaki, kun kelib yovuzlik va hiyla-nayranglar yo'qoladi, dunyoni faqat pok ishq va adolat boshqaradi. "O'zbek atalgan eng chiroyli anjuman" iborasi esa xalqning birligi, birdamligi va bayramona kayfiyatini, ya'ni kollektiv quvonchni ifodalaydi.



XULOSA

Xusniddin Sharipovning "Baxt erur..." she'rida baxt va quvonch konseptlari subyektiv hissiyot darajasidan ijtimoiy-falsafiy darajaga ko'tarilgan. Shoir uchun baxt – Vatanni sevish, uning har bir zarrasidan quvonish, ota-ona xotirasini e'zozlash va kelajakka ezgulik ko'zi bilan boqishdir. Ushbu asar o'zining teran ma'nosi, ravon tili va yuksak badiiyati bilan kitobxon qalbida vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'ularini yanada jo'sh urdiradi va haqiqiy ma'naviy quvonch baxsh etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sharipov X. Saylanma (She'rlar va dostonlar). – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2010.
2. Karimov N. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1999.
3. Sharafiddinov O. Ijodkorning ma'naviy dunyosi. – Toshkent: Sharq,
4. 2001. Yo'ldoshev Q. Adabiy tahlil metodologiyasi. – Toshkent: Kitob nashriyoti, 2015.